



FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 16 - dekabr

435-11-158-Q/22

Rishton tumani hokimligi

Rishton tumanida joylashgan Burhoniddin Ar-Roshidoniylar ziyoratgohida turizm maskanini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 12-13 may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifida va Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo'yicha tasdiqlangan №02-PA 1-7720-sonli bayonning 123-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 12-13 may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifida va Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo'yicha tasdiqlangan №02-RA 1-7720-sonli bayonning 123-bandi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Rishton tumanida "Ar-Roshidoniylar ziyoratgohi" turizm maskani etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (Xojixonov) tumandagi mahallalardagi yoshlar va keksa avlod vakillarini Burxoniddin Ar-Roshidoniylar ziyoratgohiga muntazam tashrifini amalga oshirsin.

4. Tuman xalq ta'limi bo'limi (Madaminov) barcha umumta'lim maktablari o'quvchilarini mazkur turizm maskaniga kelishlari hamda alloma Burxoniddin Ar-Roshidoniylar xayoti va ijodi bo'yicha doimiy tadbirlar tashkil etsin.

5. Tuman Obodonlashtirish bo'limi (Xaydarov) Burxoniddin Ar-Roshidoniylar ziyoratgohi atrofini doimiy ravishda obodonlashtirish choralari ko'rsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Dehqonov) ushbu Burxoniddin Ar-Roshidoniylar ziyoratgohiga ziyoratchilarni jalb etish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda muntazam targ'ibotni amalga oshirsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari Z.Umarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



S.Soliyev